

## **Asosiy vazifa va funksiyalari**

1. yongʻin xavfsizligini taʼminlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida amaliy ilmiy tadqiqotlar hamda innovasion loyihalarni amalga oshirish va bu borada ustuvor yoʻnalishlarni shakllantirishda ishtirok etish; qurilish konstruksiyalari, modda va materiallarning yongʻin xavfliligini tadqiq etish, yongʻin-texnik va qutqaruv uchun moʻljallangan mahsulotlarni sinash hamda yongʻinlardan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimlarining muvofiqligini baholash;

yongʻinlarni va boshqa favqulodda vaziyatlarni tadqiq qilish hamda yongʻin-texnik ekspertizalarini oʻtkazish;

yongʻin xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yongʻin-qutqaruv boʻlinmalari shaxsiy tarkibining sogʻligʻi va mehnat muhofazasini taʼminlash sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

Institut faoliyati yoʻnalishi boʻiicha respublikadagi taʼlim, ilmiy- tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish hamda xorijiy mamlakatlarning ilgʻor ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

yongʻin xavfsizligini taʼminlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida sertifikatlash va lisenziyalash tizimini rivojlantirish va amalga oshirishda ishtirok etish.

2. a) yongʻin xavfsizligini taʼminlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida amaliy ilmiy tadqiqotlar hamda innovasion loyihalarni amalga oshirish va bu borada ustuvor yoʻnalishlarni shakllantirish sohasida:

yongʻin xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini mavzularini shakllantirish, tadqiqotlarni maqsadlari, vazifalari va natijalarini belgilash;

yongʻin xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar sohasida amaliy va innovasion ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik, tajriba-texnologik va loyiha- izlanish ishlarini tashkillashtirish va amalga oshirish;

yongʻin va avariya-qutqaruv texnikasi, anjomlari va jihozlari, ut oʻchiruvchi moddalar, shaxsiy himoya vositalari, yongʻin va favqulodda vaziyatlar boshqa turlaridan himoyani texnikaviy vositalari, xavfsizlik va qutqarishni taʼminlash vositalarini ishlab chikish va takomillashtirish, shuningdek, oʻtga chidamli qurilish va boshqa materiallarni boshqa turlarini ishlab chikish;

Institutga tegishli intellektual mulk ob'ektlarini (IMO) huquqiy himoyasini, texnikaviy va tijorat foydalanishini taʼminlash, IMO tijoratlanishi strategiyasini shakllantirish maqsadida axborot va marketing tadqiqotlarini amalga oshirish; ichki va tashqi bozorlarda Institut ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalarini olgʻa siljitishga koʻmaklashuvchi koʻrgazma, yarmarka va salonlarda ishtirokni taʼminlash, shuningdek, reklama materiallarini tayyorlash.

b) qurilish konstruksiyalari, modda va materiallarning yongʻin xavfliligini tadqiq etish, yongʻin-texnik va qutqaruv uchun moʻljallangan mahsulotlarni sinash

hamda yongʻinlardan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimlarining muvofiqligini baholash sohasida:

modda va materiallarning yongʻin xavfiligini aniqlash boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazish, shuningdek, yongʻin-texnik mahsulotlar, yongʻin uchiruvchilarning himoya vositalari, yongʻin-texnik va qutqaruv uskunalari, yongʻin oʻchirish avtomatik va yongʻinga qarshi signalizasiya tizimlarini sinash;

yongʻinga qarshi va boshqa turdagi favqulodda holatlardan faol va passiv himoya sohasidagi xizmat koʻrsatish hamda ishlarni bajarish sifatini nazorat qilish; sinov, ilmiy izlanish va ishlanmalar yakunlari boʻyicha axborot-malumot byulletenlarni, normativ, metodik hamda turli maʼlumotlar beradigan yordamchi hujjatlarni shakllantirish;

faol va passiv himoya tizimlarning, yongʻin-texnik va qutqaruv mahsulotlarning, yongʻin oʻchirish texnikalarning sifat xususiyatlarini hamda modda va materiallarning yongʻin xavflilik koʻrsatkichlarini aniqlovchi qurilma (uskuna)larni yaratish;

yongʻin xavfsizligi va faqulodda vaziyatlar sohasida sinovlarni oʻtkazish uchun uslubiyatlar, texnik reglamentlar, davlat standartlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarni koʻrib chiqish, ishlab chiqitt va tadbiq qilishda. ishtirok etish;

yongʻin xavfsizligi va faqulodda vaziyatlar sohasidagi, shuningdek, Institut faoliyatini taʼminlashga yoʻnaltirilgan ishlar (xizmat koʻrsatish)ni Oʻzbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari bilan shartnoma (kelishuv) asosida oʻrnatilgan tartibda oʻtkazish;

davlat yongʻin nazorati organlarning mansabdor shaxslari tomonidan nazorat faoliyatini amalga oshirishlashini nazorat qilish tadbirlarini oʻtkazilishida ekspert sifatida ishtirok etish.

v) yongʻinlarni va boshqa favqulodda vaziyatlarni tadqiq qilish hamda yongʻin-texnik ekspertizalarini oʻtkazish sohasida:

murrakab, uzoq davom etuvchi va oʻziga xos yongʻinlarning hamda ayrim turdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish va rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qilish;

tergovga qadar tekshiruv organlariga, yongʻin joyidan izlarni, buyumlarni va boshqa ashyoviy dalilarni aniqlash va olishda hamda yongʻin oʻchogʻi alomatlarini fiksasiya qilishda, yongʻin chizma (reja)sini tuzishda, shuningdek, yongʻin joyini koʻzdan kechirish bayonnomasini tuzishda mahsus terminlardan foydalanilishda amaliy yordam koʻrsatish;

yongʻin-texnik va ayrim favqulodda vaziyatlar boʻyicha boshqa turdagi ekspertizalarni oʻtkazish;

hududiy Yongʻin-texnik markazlarning metodik rahbarligini amalga oshirish; sudga oid kompleks yongʻin-texnik ekspertizalarida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etish hamda yongʻinlar boʻyicha texnik xulosalarini va mutaxassis fikrlarini berish;

FVV tizimidagi ekspert boʻlinmalarining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish boʻyicha asosiy yoʻnalishlarini, shuningdek, ularning axborotlash taʼminotini ishlab chiqish;

FVV tizimidagi ekspert boʻlinmalarining ekspertlarini oʻqitish; yongʻin ishlari boʻyicha maslahatlar berish.

g) yongʻin xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish sohasida:

texnologiyalarni rivojlanilishini zamonaviy darajasiga javob beruvchi yongʻin xavfsizligi talablarini ishlab chiqish va joriy qilish, hayotiy siklning barcha bosqichlarida ob'ektlar va ularning hududlaridan foydalanilganda yongʻin xavfsizligi sohasida asoslangan qarorlar chiqarish hisobiga yongʻinlarni oldini olish boʻyicha faoliyatni takomillashtirish;

qonunchilik va boshqa me'yoriy-huquqiy aktlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, yongʻin xavfsizligi, yongʻinlarni oʻchirish taktikasi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish, favqulodda vaziyatlar idoralari va boʻlinmalari shaxsiy tarkibi mehnati, sogʻligʻini muhofaza qilish va ijtimoiy himoyasi sohasida me'yor va standartlarga, shuningdek, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;

ob'ektlarni yongʻin xavfsizligini baholash boʻyicha muhandislik hisob-kitoblarini bajarish, yongʻin roʻy berishini, yongʻin tufayli kelib chiqqan ziyonni minimallashtirish boʻyicha tadbirlarni ishlab chiqish;

yongʻin xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf qilish sohasidagi talablarni tartibga soluvchi texnikaviy me'yoriy-huquqiy aktlarni oʻrganish, tizimlashtirish va umumlashtirish;

yongʻin xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar oldini olish va bartaraf qilish sohasidagi yangi texnikaviy me'yoriy-huquqiy aktlarni ishlab chiqish, amaldagilariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish, shuningdek, tashkilotning standartlarini kelishish;

ekspert-maslahat faoliyati doirasida shartnoma majburiyatlarini bajarish; yongʻinga qarshi me'yorlashtirish, shuningdek, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimini takomillashtirish va standartlashtirish sohasidagi istiqbolli yoʻnalishlarni ishlab chiqish sohasidagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni amalga oshirish;

texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish sohasida xalqaro, davlatlararo va davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish.

d) respublikadagi ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasa va tashkilotlari bilan ilmiy tadqiqotlar va innovasion ishlanmalar sohasidagi hamkorlikni amalga oshirish hamda xorijiy mamlakatlarning ilgʻor ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish sohasida:

davlat va sohaviy ilmiy-texnik dasturlarning vazifalari hamda institutning inovasion loyihalari, ilmiy-tadqiqot rejalari va tajriba- konstruktorlik ishlari doirasida respublikaning ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasa va tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

vazirlik tizimida ilmiy kadrlar potensialini tayyorlashda ishtirok etish; yongʻin xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari sohasida xorijiy mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni tashkil qilish;

xalqaro tadqiqot dastur va loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish; chet ellik sheriklarning takliflariga binoan Institut vakillarini chet elga safarlarini tashkil qilish;

respublika va xalqaro konferensiya, kengash, simpoziumlarni tashkil etilishida ishtirok etish;

chet elda Institutning ijobiy imidjini yaratish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, shuningdek, xalqaro aloqalar sohasi hamda ilmiy faoliyat bo'yicha analitik va axborot materiallari tayyorlash.

e) yong'in xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida standartizatsiyalash, sertifikatlash va lisenziyalash tizimini rivojlantirish va amalga oshirish sohasida:

yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar sohasida mahsulot, ish, xizmatlarni va sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish; yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlash);

mahsulot, modda va materiallarning yong'in xavflilik ko'rsatkichlarini o'lchash va nazorat qilish uchun mo'ljallangan yangi o'lchov asbob-uskunalarini yaratish hamda tadqiqot, sinov ishlanmalarni metrologik ta'minlash, shuningdek, mavjudlarni modernizatsiya qilish;

yong'in xavfsizligi sohasida standartlashtirish bo'yicha milliy va xalqaro texnik qo'mitalar faoliyatida ishtirok etish;

yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar sohasidagi faoliyatlarning alohida turlarini lisenziyalashni tashkil etish.